

SUG'URTA SEKTORI IQTISODIY BARQARORLIK OMILI SIFATIDA: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY JIHATLAR

Usmonov Sarvarbek Ulug'bek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Annotatsiya:

Ushbu ishda sug'urta sektorining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sug'urtaning xatarlarni kamaytirish, investitsiyalarni rag'batlantirish va moliyaviy ishonchni mustahkamlashdagi funksiyalari asosida barqaror iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi yoritiladi. Xalqaro tajriba va O'zbekiston sug'urta bozorining holati asosida milliy tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy himoya, investitsiyalar, xatarlarni boshqarish, regulyator mexanizmlar, xalqaro tajriba, kapital aylanishi, moliyaviy tizim.

Zamonaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va xatarlar ta'sirini kamaytirish masalasi bugungi global va milliy iqtisodiy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, so'nggi yillarda jahon iqtisodiy tizimida kuzatilayotgan moliyaviy inqirozlar, pandemiya, geosiyosiy xavf-xatarlar va tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelgan beqarorlik sharoitida sug'urta sektori strategik moliyaviy institut sifatida qayta baholanmoqda. Sug'urta tizimi, bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlovchi mexanizm bo'lsa, boshqa tomondan, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi va investitsion muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralmoqda.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun nafaqat ishlab chiqarish va investitsiya hajmi, balki xavflarni oldindan bashorat qilish, ularni kamaytirish va zarur hollarda kompensatsiyalash imkoniyati mavjud bo'lishi muhimdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sug'urta sektori iqtisodiy zarbalarni yumshatadi, kapitalni saqlaydi, tadbirkorlik faoliyatining davomiyligini ta'minlaydi va ijtimoiy ishonch muhitini kuchaytiradi. Xususan, xatarlar ostidagi investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznesni moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilish, iqtisodiyotda iste'mol va ishlab chiqarish oqimlarini barqarorlashtirishda sug'urtaning o'rni sezilarli darajada ortib bormoqda.

Sug'urta faoliyatning asosiy vazifasi iqtisodiy subyektlar faoliyatida yuzaga keladigan noaniqlik va xatarlarni moliyaviy jihatdan kompensatsiyalash, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ishonch muhitini ta'minlash, shuningdek, investitsiyaviy va ishlab chiqarish jarayonlariga barqarorlik baxsh etishdan iborat.

Sugʻurtaning bunday funksional mohiyatini birinchi boʻlib A.Smit ilmiy asosda talqin qilgan. U oʻzining asarida mulkni himoya qilish va noaniqlikni kamaytirish iqtisodiy erkinlikning asosiy shartlaridan biri ekanini taʼkidlab, sugʻurtani iqtisodiy faoliyatning zarur elementi deb baholagan (Smith, 1776). Smithning bu yondashuvi bugungi kunda ham aktual boʻlib, sugʻurtaning ishlab chiqarish va savdo faoliyatidagi xavflarni kamaytiruvchi rolini asoslab beradi. Biroq, Smitning qarashlari oʻsha davr sharoitida sugʻurtani asosan mulkiy manfaatlar bilan bogʻlagani bilan chegaralangan. Zamonaviy iqtisodiyotda esa bu institutning taʼsir doirasi ancha kengaygan.

Sugʻurta faoliyatining barqarorlik bilan bogʻliq jihatlarini chuqurroq tahlil qilgan olimlardan biri amerikalik iqtisodchi K.Arrowdir. U sogʻliqni saqlash tizimida risk va noaniqlikni oʻrganar ekan, sugʻurtani iqtisodiy farovonlik va tizimning ishonchliligini taʼminlovchi mexanizm sifatida tavsiflaydi (Arrow, 1963). Arrowning yondashuvi muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi, chunki u noaniqlik ostida iqtisodiy qarorlar qabul qilishda sugʻurtaning iqtisodiy va ijtimoiy ishonchni oshirishdagi ahamiyatini koʻrsatadi. Aynan ushbu tamoyil asosida sugʻurta faqat moliyaviy xavfsizlik emas, balki iqtisodiy faoliyatni davom ettirish uchun zarur psixologik ishonchni ham taʼminlovchi vosita sifatida talqin qilinadi.

Keyingi yillarda sugʻurtaning barqarorlikka taʼsiri endogen iqtisodiy oʻsish nazariyasi doirasida ham talqin qilinmoqda. Masalan, fransuz iqtisodchisi P.Aghion va amerikalik iqtisodchi P.Howitt oʻzlarining endogen oʻsish modelida moliyaviy institutlarning, jumladan sugʻurtaning, innovatsiyalar va inson kapitaliga ijobiy taʼsir koʻrsatishini asoslaydilar (Aghion & Howitt, 2009). Ularning fikricha, sugʻurta sektori xatarlarni kamaytirish orqali korxonalarni texnologik yangiliklar va yangi loyihalarni joriy etishga undaydi, bu esa makroiqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi. Ushbu yondashuv Oʻzbekiston kabi iqtisodiy islohotlar bosqichida boʻlgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu yerda ishonch muhitining vujudga kelishi va tadbirkorlikni ragʻbatlantirish iqtisodiy oʻsishning zaruriy omillaridan biri sanaladi.

Sugʻurtaning barqarorlikdagi oʻrnini institutsional iqtisodiyot vakillari ham tahlil qilgan. Jumladan, D.North iqtisodiy institutlar samaradorligining barqarorlik va rivojlanish bilan bevosita bogʻliqligini asoslar ekan, sugʻurtani ishonchli iqtisodiy institutlar safida koʻradi (North, 1990). Unga koʻra, sugʻurta bozor ishtirokchilari oʻrtasidagi tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi, resurslar oqimini optimallashtiradi va tartibli iqtisodiy muhitni shakllantiradi. Northning bu yondashuvi ayniqsa moliyaviy inklyuziya va moliyaviy savodxonlik past darajada boʻlgan hududlar uchun muhim, chunki u yerda sugʻurta orqali moliyaviy tizimga boʻlgan ishonch mustahkamlanadi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar sugʻurtaning iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashdagi oʻrnini turli nuqtai nazarlardan yoritib beradi. Klassik iqtisodchilar mulk va kapitalni saqlash vazifasini ilgari surgan boʻlsa, zamonaviy iqtisodchilar ishonch, riskni boshqarish va innovatsion rivojlanishning qoʻllab-quvvatlanishi orqali sugʻurtaning kengroq taʼsir

maydonini asoslaydilar. O‘zbekiston uchun bu yondashuvlar sug‘urta sohasini barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Sug‘urta sektori iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda kompleks ta‘sirga ega bo‘lgan moliyaviy institutlardan biridir. Ushbu ta‘sir bir nechta funksional yo‘nalishlarda ko‘zga tashlanadi va ularni nazariy hamda statistik jihatdan asoslash mumkin.

Birinchidan, xatarlarni taqsimlash va iqtisodiy zararlarni kompensatsiyalash sug‘urtaning asosiy funksiyalaridan biridir. Jahon miqyosida 2023-yil holatiga ko‘ra, global sug‘urta mukofotlari hajmi \$7,1 trillion AQSh dollarini tashkil etgan (Swiss Re Institute, 2024), bu esa ko‘plab xatarlar muvaffaqiyatli boshqarilayotganidan dalolat beradi. K.Arrow bu borada shunday deydi: “Sug‘urta tizimi risklarni kollektivlashtirish orqali umumiy farovonlikni oshiradi” (Arrow, 1963). Bu fikr sug‘urtaning bevosita iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi vazifasini ifodalaydi.

Ikkinchidan, sug‘urta investitsiyalarni rag‘batlantiradi va kapital oqimini barqarorlashtiradi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida hayot sug‘urtasi kompaniyalari yig‘gan mablag‘larning 70% gacha bo‘lgan qismi uzoq muddatli obligatsiyalarga, infratuzilma va korporativ aksiyalarga yo‘naltiriladi (OECD, 2023). Ba‘zi olimlar o‘z tadqiqotlarida aynan ushbu mexanizm orqali sug‘urtaning iqtisodiy o‘shishga xizmat qilishini asoslaydi.

Uchinchidan, sug‘urta kichik va o‘rta biznes subyektlari (KOB) uchun xavfsizlik kafolatini yaratadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, KOB subyektlarining sug‘urtalanganligi ularning omon qolish darajasini 20–25% ga oshiradi (World Bank SME Finance Forum, 2023). O‘zbekistonda esa KOB subyektlarining atigi 15-17 foizi to‘laqonli sug‘urta himoyasiga ega bo‘lib, bu sohaning rivojlanishida salmoqli imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Stiglitz (2000) ushbu jihatni “davlat barqarorligining institutsional asosi” deb baholaydi.

To‘rtinchidan, sug‘urta ijtimoiy ishonch muhitini kuchaytiradi va moliyaviy tizimga bo‘lgan ishonchni oshiradi. 2022-yilgi “Gallup Global Financial Trust Survey” ma‘lumotlariga ko‘ra, aholisi sug‘urta xizmatlaridan muntazam foydalanadigan mamlakatlarda moliyaviy tizimga ishonch darajasi o‘rtacha 15-18 foizga yuqoriroq bo‘ladi. Bu D.North (1990) ta‘kidlaganidek, sug‘urtaning institutsional ishonch vositasi sifatidagi rolini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, sug‘urta fiskal va monetar siyosatga qo‘shimcha stabilizator sifatida xizmat qiladi. Minsky (1986) nazariyasiga ko‘ra, bozor iqtisodiyotida davlat siyosatini to‘ldiruvchi moliyaviy institutlar risklarni yengillashtiradi va tizimli xatarlarning oldini oladi. Bu ayniqsa iqtisodiy inqirozlar davrida o‘z tasdig‘ini topadi. Masalan, 2020-yil pandemiyasi davrida sug‘urta sohasidagi to‘lovlar AQShda \$90 milliarddan oshib, xususiyl sektoridagi yo‘qotishlarning muhim qismini qoplagan (NAIC, 2021).

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash yo‘lida muhim moliyaviy institutga aylanish yo‘lida harakat qilmoqda. 2019-yilda sug‘urta mukofotlari hajmi 2,1 trln so‘mni, sug‘urta to‘lovlari esa 808 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib

bu raqamlar mos ravishda 8 trln va 2 trln soʻmdan oshdi. Bu koʻrsatkichlar milliy iqtisodiyotda risklarni boshqarish vositasi sifatida sugʻurtaning nisbatan faollashganini anglatadi.

Shu bilan birga, 2022–2023-yillarda kompaniyalar soni 41 tadan 38 taga qisqargan boʻlsa-da, ularning ustav kapitali va aktivlari oʻsishda davom etdi. Xususan, ustav kapitali 22% ga, umumiy aktivlar hajmi esa 29% ga oʻsdi. Bu kompaniyalar moliyaviy bazasining mustahkamlanayotganini va xizmatlar sifatining yaxshilanayotganini koʻrsatadi.

Sugʻurta sektori investitsiyaviy faoliyatda ham faol boʻlib, 2023-yilda jami 6,1 trln soʻmga yaqin sarmoya kiritilgan. Ular asosan omonatlar, qimmatli qogʻozlar va koʻchmas mulkka yoʻnaltirilgan boʻlib, kapital aylanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. “Oʻzbekinvest” kompaniyasining 2024-yil 9 oylik faoliyati yakunlari shuni koʻrsatadiki, kompaniya 810 mlrd soʻmdan ortiq mukofot yigʻgan, bu esa sugʻurta xizmatlariga boʻlgan ishonch ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, umumiy iqtisodiyotga nisbatan sugʻurtaning ulushi pastligicha qolmoqda. Masalan, 2021-yilda sugʻurta mukofotlari YaIMga nisbatan atigi 0,52% ni tashkil etgan. Jahon tajribasiga koʻra bu koʻrsatkich rivojlangan mamlakatlarda 3–5% atrofida. Bu esa Oʻzbekiston sugʻurta bozorida hali foydalanilmagan salohiyat mavjudligini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston sugʻurta bozori soʻnggi yillarda rivojlanish yoʻlida sezilarli siljishlarga erishgan boʻlsa-da, u hali iqtisodiyotning toʻlaqonli tarkibiy qismiga aylangani yoʻq. Statistika shuni koʻrsatadiki, sugʻurta mukofotlari, toʻlovlari va kompaniyalar aktivlari yilma-yil ortib bormoqda, bu esa tizimning moliyaviy salohiyati mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sugʻurta kompaniyalari investitsion faoliyatda ham faol qatnashib, kapital oqimlarining barqarorligini taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Biroq, YaIMga nisbatan sugʻurta mukofotlarining ulushi, aholining sugʻurta xizmatlaridan foydalanish darajasi va bozor penetratsiyasi pastligicha qolmoqda. Demak, mavjud resurslar va infratuzilmani chuqurlashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish, regulyator mexanizmlarni kuchaytirish orqali sugʻurta tizimi Oʻzbekiston iqtisodiy barqarorligining muhim tayanchlaridan biriga aylanishi mumkin.

Oʻzbekiston sugʻurta sektorining iqtisodiy barqarorlikdagi rolini kuchaytirish uchun bir nechta ustuvor yoʻnalishlar tavsiya etiladi. Avvalo, aholining sugʻurta xizmatlaridan foydalanishini ragʻbatlantirish maqsadida soliq imtiyozlari joriy etilishi lozim. Bu, ayniqsa, ixtiyoriy sugʻurta turlarining ommalashuviga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida riskga asoslangan nazorat tizimini (RBS) bosqichma-bosqich joriy qilish orqali regulyator nazorati sifatini oshirish mumkin.

Sugʻurta xizmatlarining raqamlashtirilishini jadallashtirish, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali xizmat koʻrsatishni soddalashtirish fuqarolar ishonchini oshiradi. Kompaniyalar investitsion faoliyatini davlat obligatsiyalari, infratuzilma va yashil loyihalarga yoʻnaltirishi, bu orqali milliy iqtisodiyotga uzoq muddatli barqaror kapital jalb qilinishi

ta'minlanadi. Nihoyat, sug'urta savodxonligini oshirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqilishi aholining xabardorligini kuchaytirib, sektorning barqaror rivojlanishiga turtki beradi.

Adabiyotlar:

1. Aghion P., Howitt P. (2009). *The Economics of Growth*. MIT Press.
2. Arrow, K. J. (1963). Uncertainty and the Welfare Economics of Medical Care. *American Economic Review*, 53(5), 941–973.
3. Federal Reserve Bank of St. Louis (FRED). (2024). Life Insurance Premium Volume to GDP for Uzbekistan.
4. North D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
5. OECD. (2023). Insurance Investment Statistics 2023. Paris: OECD Publishing .
6. Smith A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. W. Strahan and T. Cadell.
7. Swiss Re Institute. (2024). World Insurance Report 2024.
8. World Bank. (2023). SME Finance Forum Report.